



## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI KUCHAYTIRUVCHI OMILLAR**

**Rajabov Alibek Begmurotovich**

Buxoro shahar 31 maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili istagini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish o'z kuchiga ishonch hisslari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy kamponetlari: O'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etishi va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim.

**Kalit so'zlar:** aqliy mehnat, boshlang'ich sinf, yetakchilik qobiliyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo



birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalari, asosan, kimlarga dir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. *Baho o'quvchi o'zlashtirishiga ta'sir qiladimi?*



Birinchi sinf o'quvchisining har qanday intilishini qadrlash lozim. Dabdurstdan yomon bahosi bilan maktabga endigina qadam qo'ygan bolaning orzularini bir zumda yo'qqa chiqarishga hech bir o'qituvchining haqqi yo'q. Shuning uchun har bir bolaga individual yondashib, o'qish istagidagi barcha harakatlarini rag'batlantirish zarur. Bu borada joriy qilingan ball sistemasida baholash eng oqilona yo'ldir. Biroq birinchi sinf o'quvchisiga «1» baho emas, ball deb tushuntirsangiz-da, u baribir baho deb tushunadi. Shuning uchun har gal birinchi sinfni qabul qilganimda ularni maktab ta'limiga moslashgunlaricha baholamayman. Balki rag'batlantiraman. Ya'ni, gul — «5», gulning yaprog'i — «4», shunchaki aylana — «3», uchburchak — «2»ni anglatadi. Rangli uchburchakni qo'lga kiritgan o'quvchimga bu uchburchak «ikki»ni anglatadi deb hech qachon izoh bermayman. Har bir predmet ball hisoblanishini, faqat ular yaxshi yoki sustroq javob berilganiga qarab turlicha bo'lishini tushuntirish zarur. Shuning uchun turli rangdagi aylana yoki uchburchak olgan bolalarni ham xafa qilmaydi. Uning o'rniga «gul»ni qo'lga kiritish istagida yaxshiroq harakat qiladi. 1- sinfda bolani ana shunday rag'bat usuliga o'rgatib, ikkinchi sinf boshidan raqamli baholashga ko'niktirish, ularning o'qishga bo'lgan ilk qiziqish va ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun xizmat qiladi.

Baho o'qishga undashi kerak

Darsga tayyorlanmagan bolani yaxshiroq harakat qildirish, mas'uliyatni chuqurroq his qilishi uchun ham har doim a'lo baho qo'yib bo'lmaydi. Har bir o'quvchini mehnatiga yarasha baholash kerak. Har qanday vaziyatda ham bola rag'batlantirib turilsa, tushkunlikka tushmaydi. Uning o'rniga xatolarini takrorlamaslikka tirishadi. Buning uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin: hafta mobaynida «to'rt» olmagan o'quvchiga yulduzcha sovg'a qilinadi. Agar birikkita «to'rt» olsa-da, bolaning intilishlari namunali bo'lsa, uni ham yulduzcha bilan taqdirlanadi. Bir oy oxirida 4ta yulduzcha, ya'ni har haftada yulduzcha olgan bolaga kitob sovg'a qilish ularga o'ziga xos motivatsiya beradi. Buni ko'rgan sinfdagi yaxshi yoki o'rta o'qiydigan o'quvchilar ham qiziqadi, havas qiladi va o'zlari ham qatorasiga rag'batlarni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Chunki o'quvchi uchun o'qituvchining e'tibori hamma narsadan ustun turadi.



O'qituvchi har bir darsda imkoni boricha butun sinf jamoasini baholay olishi kerak. Hech bo'lmaganda, bolaning darsga qanday tayyorgarlik ko'rganini nazorat qila olishi darkor. Shundagina har bir o'quvchi berilgan vazifaga jiddiy qaraydi. Yana sinfdagi yetakchi bolalarda o'zlarini ko'rsatish, birinchi bo'lish istagi yuqori bo'lganligi uchun ham ular topshiriqlarni dars jarayonining o'zidayoq bajarib, tezda baholanishni xohlaydilar. Biroq bunda o'zlashtirish sayoz bo'lib qolishi mumkin.

Chunki tez qabul qilingan ma'lumotlar inson xotirasidan qisqa muddatda o'chib ketadi. Shuning uchun, boladagi har bir qilingan harakatni hurmat qilgan holda unchalik faol bo'lmagan bolalarni ham bahslarga, savol- javoblarga ko'proq jalb qilish kerak. Ularni ham fikri teran, har qanday vaqtda vazifaga yechim izlaydigan faol o'quvchiga aylantirishda o'qituvchi ter to'kishiga to'g'ri keladi. Shu mehnat ortidan esa, albatta, sinf jamoasining ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga erishiladi.

Bola olayotgan har bir bahoda ota-ona omilining o'rni bo'lishi zarur. Ayniqsa, har bir qo'yilgan «2» dan ota-ona xabar topishi, kerak bo'lsa, o'qituvchi tomonidan aytilishi kerak. Bu o'quvchining yo'l qo'yayotgan kamchiligini to'g'rilashga va ruhining tushib ketmasligiga xizmat qiladi. Ota-onalarning bu o'rinda bolani asossiz ravishda «nimaga ikki olding?» deb koyiyverishidan hech qanday naf yo'q.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun tanqid yoqimsiz narsadir. Xuddi shu kabi «ikki» ham u uchun muvaffaqiyatsizlik, ojizlik belgisidek tuyuladi. Shu bois birinchi sinf o'quvchisiga «2» baho qo'yilmasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki har bir past bahoni ham bolaning ko'nglini o'ksitmagan holda, ehtiyotkorlik bilan qo'yish zarur. Sababi birgina baho o'quvchining umumiy bilim olish darajasiga ta'sir qilmay qolmaydi. Yoxud matematikadan misol yechishga qobiliyati zo'r bolani she'rni ifodali o'qib bera olmaslikda ayblab, u fandan «5», bu fandan «2» qo'yilsa, o'quvchida fanlarni ajratish hissi paydo bo'ladi. Bora-bora shu bola «adabiyotdan mening iqtidorim yo'q», deb o'ziga- o'zi xulosa chiqarishi mumkin. Bu esa gullamoqchi bo'lgan gulni uzib olish bilan barobardir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ta’lim to’g’risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 y.
2. Goliza M.V. “Возрастная и педагогическая психология”
3. Gafarov A.E, “ Pedagogik amaliyot”. Toshkent 2002 y.
4. Gurova A. “Диагностика психического развития детей”.